

SAKKOKIY DEVONI LUG’AVIY QATLAMINING LINGVOPOETIK TAHLILI

Abduxalikova Maftuna
JDPU o‘zbek tilini o‘qitish
metodikasi kafedrası o‘qituvchi
abdusalikovamaftuna276@gmail.com
93-301-58-89

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20610299>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sakkokiy devonining leksik xususiyatlari, xususan, undagi arabcha va forscha o‘zlashmalar lingvistik jihatdan tahlil qilingan. Shoir she’riyatida qo‘llangan qaratqich aniqlovchili birikmalar, izofali konstruksiyalar, tasavvufiy istilohlar hamda ijtimoiy-ma’naviy mazmun ifodalovchi arabiy birliklarning semantik va uslubiy vazifalari yoritilgan. Shuningdek, devonda uchraydigan forscha affikslar va murakkab so‘zlarning qo‘llanish xususiyatlari misollar asosida izohlangan. Tadqiqot natijalari eski o‘zbek adabiy tilining leksik taraqqiyotini o‘rganishda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Zero, badiiy asardagi har bir so‘z estetik jihatdan asoslangan va asarning umumiy g‘oyaviy-badiiy tizimiga bo‘ysundirilgan bo‘ladi. [4]

Kalit so‘zlar: Sakkokiy devoni, leksika, arabcha o‘zlashmalar, forscha o‘zlashmalar, izofa, tasavvufiy istilohlar, tarixiy leksikologiya, eski o‘zbek tili, badiiy tasvir vositalari, qaratqich aniqlovchi, morfologik shakl, semantik tahlil, adabiy til, g‘azal, qasida.

Mamlakatimizda xalqimizning ulkan ma’naviy merosi, boy tarixini xolisona o‘rganish, bebaho milliy qadriyatlarimizni teran anglash borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, ...tarixiy-madaniy merosimiz namunalarini har tomonlama chuqur o‘rganish, buyuk alloma va mutafakkirlarimizning jahaon ilm-fani va sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan beqiyos hissasini targ‘ib etish, shu asosda yurtdoshlarimiz, avvalo, yosh avlodimizni xalqimizning buyuk ma’naviy merosiga hurmat, ona yurtimizga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ishlarning natijadorligini tubdan oshirish bo‘yicha dolzarb vazifalar turganini alohida ta’kidlash lozim.[1] Qolaversa, “...ta’lim muassasalarida davlat tilini o‘rgatish va uni bilish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirish, davlat tilining ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish; davlat tili sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish; davlat tilining axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, Internet jahon axborot tarmog‘ida munosib o‘rin egallashini ta’minlash, o‘zbek tilining kompyuter dasturlarini yaratish”[2] muhim masalalardan sanaladi. Shu ma’noda, xalqimiz ma’naviy merosining ajoyib durdonalaridan sanalgan Sakkokiy devonini leksik jihati hali to‘laligicha o‘rganilgani yo‘q.

Adabiyotshunos olim N.Mallayev: XV asrning birinchi yarmida Sakkokiy, Atoiy, Yaqiniy va nihoyat Lutfiy kabi zabardast g‘azalchilarni yetishtirdi. Ularning har biri g‘azalchilikda o‘ziga xos xususiyat va mavqega ega edi [6.b-96] deya e’tirof etadi.

Mumtoz adabiyotimiz tarixida shoir Mavlono Sakkokiy va u yaratgan devonning alohida o‘rni bor. Shoir “...qoldirgan o‘lmas merosi bugungi kunda ham ma’naviyatimizni yuksaltirish, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib qizmat qiladi”[7.b-178] deb o‘ylaymiz. Zero, o‘rta asr ijodkorlaridan mavlono Lutfiy, Atoiy, Gadoiylar kabi Sakkokiy ham turkiy –o‘zbek adabiyoti, tili va badiiy-estetik tafakkuri taraqqiyotiga benihoya kata hissa qo‘shgan ijodkorlardan biri hisoblanadi.

Sakkokiyning ijodiy merosi hajm tomonidan kichik bo‘lsa ham, ammo mohiyati jihatidan kattadir. U o‘z salaflarining, qolaversa, Navoiyning ta’rifiga sazovor bo‘lganidan ham uning ijod ahli

o‘rtasidagi yuksak mavqei baholash mumkin. Shoir qasidalar va g‘azallardan iborat 2 ta noto‘liq devon: Britaniya Muzeida (taxminan XVI asr o‘rtalarida ko‘chirilgan nusxa) 2079, O‘zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida (1937-yil Shoislom kotib tomonidan ko‘chirilgan nusxa) 7685[5.7685inv] raqami ostida saqlanayotgan nusxalar mavjud. Ularda shoirning Xoja Muhammad Porso, Arslon Xoja Tarxon, Xalil Sulton, Mirzo Ulug‘bek kabi temuriylarga yozgan qasidasi (vv.1b-14a) hamda 54ta g‘azali (vv.14a-27a) o‘rin olgan.

Sakkokiy she‘riyatida ko‘chma ma‘no vositalari — metafora, tashbeh, isti‘ora kabi san‘atlar keng qo‘llanilgan. Masalan, ishqiy mavzudagi g‘azallarida yor timsoli ko‘pincha tabiat hodisalari yoki go‘zal obrazlar orqali ifodalanadi. Bu esa o‘quvchida kuchli estetik ta‘sir uyg‘otadi. Shoirning bunday uslubi uning badiiy tafakkuri teranligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, shoir asarlarida fonetik va sintaktik vositalarning ham muhim o‘rni bor. So‘zlarning ohangdorligi, qofiya va radiflarning o‘rinli qo‘llanishi she‘rlarning musiqiylikini oshiradi. Sintaktik jihatdan esa sodda va murakkab gaplarning uyg‘unligi fikrning ravon va ta‘sirchan ifodalanishiga xizmat qiladi.

Turkiy tillarga arabiy lug‘aviy birliklarining kirib kelishi VII-VIII asrlarda Markaziy Osiyoning arablar tomonidan istilo etilishi, bu hudud aholisining islom dinini qabul qilishi bilan bog‘liq. O‘zbek tili tarixiy leksikasini yozma manbalar asosida ko‘zdan kechirar ekanmiz, unda arabizmlar salmog‘i XIX asr oxiri va XX asr boshlarigacha tadrijiy ko‘payganini ko‘rishimiz mumkin. Qadimgi turkiy bitiklarda arab so‘zlari bo‘lmagani holda, XI asr yodgorligi “Qutadg‘u bilik”ka nisbatan XII-XIII asrlar yodgorligi deb topilgan “Hibatul-haqoyiq”da arabizmlar ko‘proq uchraydi. Mazkur tadqiqotlarga tayanib biz bitiruv malakaviy ishimizda Sakkokiy devonidagi arabcha o‘zlashmalarni imkoniyat darajasida ko‘rib chiqamiz.

Sakkokiy devonida arabcha so‘zlar ishtirok etgan qaratqich aniqlovchili birikmalarga misollar keltiramiz:

Morfologik belgisiz shakli: shayxulislom muqarrabi, shariat ahkomi, qoil ruhi, mulk qazosi, masjidi jome‘ mashoyixi, g‘ayb mutolaasi, g‘ayb umuri, mashoyix qoshig‘a, tengri zikri, savdo hayolig‘a, Qur‘on hatmi.

Morfologik belgili shakli: ahkomin sharti, anbiyoning hotami, holining bidoyati, Sahlning quli,

Forsiy izofa shaklida: as‘hobi xaloyiq, sultoni ulamo, burhoni urafo, masjidi jome‘.

Sakkokiy devonida arabcha izofa birikmasi forsha izofa shakda keng qo‘llanilgan: *kuh-u daryo-tog‘u daryo*, *Ahli zohir-tashqi ko‘rinishli ahllar*, *aqli kull-har taraflama aql*, *mabda‘-i amon-tinchlikning boshlanishi*, *surur-i jovidon-xursanchilik borlig‘i*, *nido-i al-amon-tinchlik nidosi*, *maljo‘v-u ma‘vo*, *maymun-u humoyun-baht qo‘shi*, *iyd-u olam-butun olam bayrami*, *nadimu nadam-pushaymonlar pushaymoni*, nayyiri a‘zam-ulug‘ yorug‘lik, sahobu bahr-bulut va daryo, judu karam-sahiyligi yaxshilik.

Ey jaloling haybatidin **kuh-u daryo** pastu xushk,

V-ey jamoling nusratidin dashtu homun marg‘zor.(6-bet)

Oh urup ishqingda yer-ko‘k gunbazini kuydurur,

Ahli zohir oning aslin bilmayan aytur buxor. (7-bet)

Sakkokiy devonida sof arabcha so‘zlar ham uchraydi. Ularni quyidagicha tasnif qilish mumkin:

Qur‘on oyatlari va arabiy iboralardan keltirilgan iqtiboslar. shafe‘ ul-muznibin-gunohkorlar shafatchisi, hablul-matin – metindek arqon, kona omanno-biz ishondik, Kuntu kanzan (Qur‘on oyati) -men maxfiy edim, limaalloh-Xudo bilab birga, mubayyinul mubham-tushunarsiz so‘zlar bayoni, vazuho vallayl-(qur‘on oyati)

Osiy ummatlarning panohi, yo **shafe’ ul-muznibin**,
 Jahl chohidin chiqarg’a sunnating **habl ul-matin**.(3.8-bet)
 Rahm qil mashhar kuni Sakkokiy osiy jonig’a,
Yo shafe’ ul-muznibin, yo rahmatan lil-olamin.(3.9-bet)

Tasavvufiy istilohlarga oid arabcha so’z birikmalari: Nuqlu may, xuyi odat, bodi sabo, subhu shom, *Basotin ravzasi kabilar*.

Nuqlu may majliska kelmas bo’lg’ali bag’ri piship,
 Hasrat o’ti birla evrilip kuyar doim kabob.(3.39-bet)
 Dunyada **oshiqqa ma’shuqi** jafoni, ey sanam,
 Qildi ko’p, lekin hamisha **xuyi odat** qilmadi. (3.54-bet)

Ijtimoiy ma’noni anglatuvchi arabiy so’zlar. Qiroat, kull, juz’, aql, aduv, altof, falak, lu’lu, mo’jaz, daf’, makr, hosid, saodat, rafi’, qadd, layli, kabilar.

Sabo keldi **safo** birla, ketur, ey **soqiy, sahboni**,
 Olib qutlug’ alingga berk tut ul jomi musaffoni.
 Ketib qish zahmati, keldi **muborak** yoz bila **rahmat**,
 Kecha-kunduz kerak qilsaq chaman sahnida **ma’voni**.

Sakkokiy devonida qo’llangan forscha affikslar o’zbek tiliga ayrim o’zgarishlar bilan kirib kelganini ko’ramiz. Masalan: **go’y** so’zi Sakkokiy g’azallarida ikki ma’noda qo’llangan. Bir baytda go’y so’zi aytuvchi ma’nosida qo’llangan:

Ayur madhu ayur na’tu **duogo’ying**, sanoxoning,
 Bo’luptur insu jinu vahshu tayru jumla jonvar.(3.59-bet)

Sakkokiy devonidagi ayrim baytlarda forscha ot+fe’l=ot qolipidagi so’zlar juda ko’p uchraydi. Ayrim so’zlarda forscha+forscha shaklida kelgan bo’lsa, xastadil so’zida arabcha+forscha shaklida berilgan. Izohli lug’atda xasta- toliqqan, charchagan, behold, qiynalgan 1. xastadil so’zi esa xasta, yuragi behol, yuragi ezilgan:Pirim, avf aylangiz baxti qaroni, g’aribu xastadil motamsaroni. Ko’chma ma’noda, qattiq sevib qolgan, oshiq-u beqaror: Yetolmay sog’inib, xastadil habibbingman, Habibiy.[8]

Hozirgi o’zbek adabiy tili va fors tilida turkiy tilga tegishli “xon” so’zi, ya’ni podshoh so’zi ham mavjud. Bu qo’shimcha forscha xon qo’shimchasidan farq qiladi.

Uzotti qissani zulfungu qildi takya yuzunga,
 Kecha tongg’a tegin vasfinda meni **qissaxon** qildi. (65-bet)

Sakkokiy devoning til xususiyatlarini atroflicha o’rganish ko’p asrli tarixga ega bo’lgan qardosh turkiy tillar leksikasi, ayniqsa, o’zbek adabiy tilining rivojlanishi borasidagi nazariy qarashlarga oydinlik kiritadi, o’zbek tili tarixiy leksikologiyasi uchun boy material beradi. Sakkokiy she’riyatida leksik boylik, badiiy tasvir vositalari, ohangdorlik va uslubiy rang-baranglik uyg’un holda namoyon bo’ladi. Bu esa uning asarlarini nafaqat badiiy, balki lingvistik jihatdan ham qimmatli manbaga aylantiradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

- 1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 майдаги “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони.

3. Мавлоно Саккокий девони. Нашрга тайёрловчи Жалолиддин Жўраев, Жамолиддин Жўраев, Ўткиржон Хатамов. Тошкент: “БООКМАНЎ ПРИНТ”, 2024
4. Виноградов В.В. О языке художественной литературы. – М.: Наука, 1959. – С. 128.
5. Devoni Mavloni Sakkokiy. O'zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, 7685inv.
6. MallayevN. O'zbek adabiyotida g'azal va uning rivojida Navoiyning roli haqida // O'zbek adabiyotshunosligi mumtoz antologiyasi. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.2016.-B.96.
7. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz.-T.: O'zbekiston, -B.178.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, 2006, 4-jild, 388-bet.